



UDK: 930.25(4):930.1

*Dildora YUSUPOVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markaz katta ilmiy xodimi, PhD J.Adilov taqrizi asosida*

### RESEARCH BY WESTERN EUROPEAN SCIENTISTS IN THE FIELD OF ARCHIVE STUDIES AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Annotation

The article is devoted to the issues of historiography of the history of foreign archives. In particular, based on the works of Russian authors, information is provided on the scientific research of Western European scientists at the beginning of the 20th century. From a historiographic point of view, information is provided on scientific works created by archivists, topics studied, and on the analysis of researched problems in archival science.

**Key words:** History of archives, historiography, Western European scientists, foreign archives, 20th century archival work, scientific works.

### ИССЛЕДОВАНИЯ УЧЕНЫХ ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЫ В СФЕРЕ АХИВОВЕДЕНИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

Статья посвящена вопросам историографии истории зарубежных архивов. В частности, на основе работ российских авторов, приведены сведения о научных исследованиях ученых Западной Европы в начале XX века. С точки зрения историографии дана информация о созданных архивистами научных трудах, изученных темах, об анализе исследованных проблем в архивоведении.

**Ключевые слова:** История архивов, историография, ученые Западной Европы, зарубежные архивы, архивное дело XX века, научные труды.

### G‘ARBIY YEVRONA OLIMLARINING XX ASR BOSHLARIDA ARXIVSHUNOSLIK SOHASIDA OLIB BORGAN TADQIQOTLARI

Annotatsiya

Maqola xorijiy arxivlar tarixi tarixshunosligi masalalariga bag‘ishlangan. Xususan, rossiyalik olimlar tadqiqotlari asosida, G‘arbiy Yevropa olimlari tomonidan XX asr boshlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Arxivshunoslar yaratgan ilmiy asarlar, o‘rgangan masalalar, arxivshunoslik sohasida tahlil qilgan muammolar xususidagi axborot tarixshunoslik nuqtai nazaridan keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Arxivlar tarixi, tarixshunoslik, G‘arbiy Yevropa olimlari, xorijiy arxivlar, XX asr arxiv ishi, ilmiy asarlar.

**Kirish.** Ilm-fan rivojlanishining zamonaviy bosqichida xorijiy hamkorlik masalalari dolzarb hisoblanadi. Olim va mutaxassislar o‘rtasida mazkur yo‘nalishdagi tadbirlar tajriba almashinuvini kengaytirib, o‘z navbatida, texnikaning tezroq taraqqiy etishiga olib keladi. Hamkorlik aloqalarida mamlakatlarning tarixini bilish muhim ahamiyatga ega, zero aloqlar o‘rnatilayotgan davlatning madaniy rivojlanishini bilish ushbu mamlakat va uning xalqiga hurmat belgisi sanaladi. Shu tariqa xorijiy davlatlar tarixini o‘rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, arxivshunoslik sohasida ham mustaqil O‘zbekistonda xorijiy hamkorlik aloqalari tobora keng o‘rnatilmoqda. O‘zbekiston arxivchilari Yevropa, Osiyo, AQSH davlatlaridagi yetakchi arxiv tashkilotlari bilan qator ilmiy va texnikaviy integratsiya tadbirlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bu masalada arxivchi mutaxassislarga xorijiy arxivlardagi arxiv ishi tarixini bilish muhim bo‘lgani bois, hozirgi davrda xorijiy arxivlar tarixi va tarixshunosligi mavzularini yoritish masalasi arxivshunos olimlar oldida turgan vazifalardan hisoblanadi. Xorijiy arxivlar tarixi tarixshunosligini hududlar kesimida hamda davriy bosqichlar bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiq, sababi bunday yondashuv tizimli bilimlarni shakllantiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** G‘arbiy Yevropa olimlarining XX asr boshlarida arxivshunoslik sohasida olib borgan tadqiqotlari mavzusi bo‘yicha bir qancha rossiyalik olimlar ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Xususan, taniqli tarixchi, arxivshunos, tarixshunos olim YE.V.Starostin arxiv tarixi yo‘nalishlarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib

borgan bo‘lib, o‘z asarlarida ko‘proq Rossiya arxivlarining tarixiy taraqqiyoti, shuningdek, ayrim Yevropa mamlakatlaridagi arxiv ishi rivoji masalalarini o‘rgangan. O‘z izlanishlarida u arxivlarning paydo bo‘lishidan boshlab zamonaviy davrdagi holatiga e‘tibor qaratgan, arxivlar tarixini davrlashtirish muammosini yoritishga harakat qilib har bir davrning o‘ziga xos jihatlariga ta‘rif bergan [1]. Yevropa davlatlarida arxivlarning shakllanishi, taraqqiyot dinamikasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, arxiv tarixi tarixshunosligi masalalari yana bir rossiyalik mutaxassis YE.V.Karapetyans ilmiy asarlarida ancha keng yoritilgan bo‘lib, uning izlanishlarida ko‘proq iqtisodiy arxivlar tarixiga oid ma‘lumotlar keltirilgan. Ayni vaqtda G‘arbiy Yevropa arxivlari XX asr tarixi tarixshunosligi muammolari ham o‘rganilgan. Olima o‘z tadqiqot ishlarida turli davlatlarda ijod qilgan yevropalik arxivchilar, ularning olib borgan ilmiy izlanishlari, o‘rgangan masalalari, chop qilgan asarlari xususida muhim ma‘lumotlar keltirgan [2]. Yuqorida qayd etilgan olimlarning izlanishlari natijalaridan foydalanish arxiv ishi, arxiv nazariyasi va amaliyoti, arxivlar tarixi tarixshunosligi muammosini yoritishda o‘z samarasini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Quyidagi maqolada arxivlar tarixi tarixshunosligini yoritishda adabiyotlarni tavsiflash, ma‘lumotlar tahlili, sintezlash, axborotni tasniflash, gnoseologik talqin etish kabi umumilmiy hamda tarixiy bayon qilish, retrospektiv tahlil, tarixiy tadqiqotlarni tarjima qilish kabi maxsus usulablardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** XX asr boshlarida Yevropada va umuman jahonda arxivchilar o'rtasida xalqaro tashkilotlar tuzilib, xalqaro hamkorlik masalalari arxivchilar o'rtasida kun tartibiga qo'yildi. Shu tariqa xalqaro arxiv aloqalari muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ham arxivshunoslik va, xususan, arxiv nazariyasi sohasiga oid tadqiqotlarning mualliflari sifatida tanila boshladilar. Shu vaqtga qadar G'arbiy Yevropa arxivshunosligida to'plangan tajriba, shuningdek, XIX asr arxivshunoslik adabiyotida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, ular ilk bor burjuacha g'oyaga tayangan umumlashtirilgan arxivshunoslik nazariyasini yaratishga urindilar.

Gollandiyalik arxivshunoslar S.Myuller, I.Feyt va R.Fruinlar tomonidan 1898-yilda "Arxivlarni tartibga keltirish va sharhlash bo'yicha yo'riqnomasi" nomli asar ilmiy doiralarda berilgan edi. Mazkur kitob 1905-yilda nemis tiliga, 1908, 1910, 1940 va 1970-yillarda italyan, fransuz, ingliz va yapon tillariga tarjima qilingan. Rus tiliga ushbu asarni I.A.Golubsov "Arxiv ishi" nashrining 2-4-jildlarida chop qilgan. Asarda arxiv nazariyasining ikkita muhim masalasi – hujjatlarni tasniflash hamda arxivlarni sharhlashga asosiy e'tibor qaratilgan [3]. Bunda mualliflar 1891-yilda Arxivchilar jamiyatiga birlashgan golland arxivshunos olimlar, mutaxassislarining bilim va tajribalaridan kelib chiqib ham bularni tadqiq qilishga harakat qilganlar.

Taniqli ingliz arxivshunos olimi, arxivshunoslik bo'yicha fundamental asarlar muallifi, mazkur sohada ko'plab ma'ruzalar qilgan Xilari Djenkinson harbiy sohadagi faoliyatini to'xtatib, o'zini Angliyada arxiv ishini o'rganilishiga bag'ishladi. 1922-yilda u "Arxivshunoslik bo'yicha yo'riqnomasi va zamonaviy arxivlar muammolari" nomli kitobini chop qilgan [4]. Dastlab u harbiy arxivlarni tartibga keltirish muammosini yoritishni maqsad qilgan, biroq keyinchalik rejalari o'zgargan va olim arxivlarning avvalgi holati va kelgusida qanday ishlashi lozim, degan masala yuzasidan tadqiqot olib borishni afzal ko'rgan. Djenkinson "arxiv hujjati" atamasiga yangicha, kengaytirilgan ta'rif berib, avvalgi tadqiqotchilardan farqli o'laroq, arxiv hujjati deganda karta, plan, sxema, ham tushunish lozimligini ta'kidlagan. Hatto u insonlarning shaxsiy kitoblari, buyumlari va ularga birlashtirilgan hujjatlarni ham arxiv hujjatlari qatoriga kiritib, ularni muzeylarga topshirishga shoshmaslik kerakligini qat'iy yoqlab chiqqan.

Muallif tomonidan "arxiv materiallari" tushunchasiga ancha keng ta'rif berilib, u arxiv materiallari deganda qo'lyozma, mashinkada terilgan, bosma hujjatlar va ularga birlashtirilgan moddiy buyumlarni kiritgan. Ma'muriyat xodimi tomonidan saqlab qolingan hujjatlarning hammasi ham arxiv materiallari bo'lavermasligiga Djenkinson e'tibor qaratgan, bu borada u nashr qilingan hisobotlar, esdaliklar esa arxiv materiallari hisoblanmaydi, deb aytgan. Olim arxiv materialiga bergan bunday har tomonlama kengqamrovli ta'rifdan so'ng, tabiiyki, "arxiv fondi" atamasiga ham o'zgacha tushuntirish berib o'tgan. Xususan, "arxiv fondi" – bu ma'lum bir tashkilot ma'muriyati faoliyati natijasida yuzaga kelgan va to'planib qolgan arxiv materiallaridir. Djenkinsonning xizmatlaridan biri yana shundaki, u arxiv fondiga ancha xolis ta'rif keltirgan va uning ichki tasnifi (klasifikatsiyasi)ni ishlab chiqqan: fond, fond bo'limi, fond bo'limi bo'linmasi. X.Djenkinsonning ushbu tadqiqoti Angliyada arxivshunoslik sohasida bajarilgan jiddiy ilmiy ishlardan dastlabki sifatida tan olingan va arxiv nazariyasi hamda amaliyotining kelgusi rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Fransiyada Yuqori Luara departamenti arxivi saqlovchisi Per Fransua Frune 1924-yilda "Arxivlarni tartibga keltirish va tavsiflash hamda yozma tarixiy hujjatlarni nashr qilish" kitobini chop etdi [5]. Mazkur asar asosan yosh

tarixchilar uchun mo'ljallangani bois, muallif unda nazariy masalalarga kamroq to'xtalib o'tgan va arxiv materiallaridan foydalanishda ishni osonlashtiradigan uslub hamda usullarni bayon qilishga e'tibor qaratgan.

Furme kitobi uch bobdan tashkil topgan bo'lib, birinchi va ikkinchi boblari arxiv hujjatlarini tasniflash va sharhlash, uchinchi bobda esa nashr etish uslublariga bag'ishlangan. Tasniflashning asosiy prinsipi sifatida muallif "fondga bo'lgan hurmat"ni ilgari suradi. Fondan hech narsani chiqarib tashlash, fondga hech nimani qo'shib qo'yish mumkin emas, deb ta'kidlaydi u. Ya'ni fondlar kelib chiqishiga ko'ra tashkillashtirishi kerak – mavzuli prinsip. Furme o'z izlanishlarida Fransiyada shakllangan fondlarning ichki tasnifi, hujjatlarni sharhlash, ilmiy-ma'lumotnoma apparati tuzish jarayonlarini umulashtirgan.

Italiyaning Rim shahrida 1928-yilda "Arxivistika" kitobining ikkinchi to'ldirilgan nashri chop qilindi, ushbu kitob italyan olimi va arxivchisi Eudjenio Kazanova qalamiga mansub. Asarni yozishda olimning 30 yilgi arxiv sohasidagi faoliyati davomida to'plagan bilim, ko'nikma va tajribasi asos bo'lgan. Shuningdek, Kazanova o'z tadqiqotida taniqli italyan arxivshunoslarning asarlaridan ham keng foydalangan, jumladan: J.Rishu, Sh.Langlua, S.Myullera, Y.Feyta, R.Fruina, YE.Sebastyani, P.Taddi, G-Xoltsingera, P.Pekkyai, G.Breslau, F.Kyu-vele va b. [6].

Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti mavzusi tanlangan va bunda ularni o'rganuvchi arxivistika fanining mustaqil fan ekanligi muntazam ravishda olim tomonidan ta'kidlab kelingan. O'z tadqiqotida mutaxassis o'zidan avval G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan arxiv sohasida yaratilgan asarlar natijalariga murojaat qilgan. Kazanovanning asarida sinfiy yondashuvni sezish qiyin emas, masalan, hujjatlarni butlash, tashkillashtirish, saqlash, ulardan foydalanish va h.k. masalalarda, oddiy xalq mavzusiga birmuncha yuqoridan turib qaralgan, xalqning har qanday siyosiy harakatlariga jinoyat sifatida baho berilgan. Ba'zida olim g'arbiy yevropalik olimlarning arxiv sohasiga oid turli atamalarga berigan ta'riflarini tanqid qilgan va ularni arxivni vazifasini boshqaruv bilan cheklab qo'yishlarida ayblagan, aslida arxivni davlat tashkiloti ekanligiga urg'u bergan.

Kitobning asosiy qismi "arxivlar haqidagi fan", ya'ni "arxivistika"ga bag'ishlangan. Kazanova o'z kitobini mazmunan to'rt qismga ajratadi: arxivlarning umumiy boshqaruvi yoki arxiv iqtisodiyoti (binosining qurilishi, ichki jihozlanishi, hujjatlarning saqlanishi va h.k.); sof arxivistika (hujjatning saqlovxonada joylashishi, kataloglashtirish, arxivlash, saralash, tartibga keltirish, tasniflash va h.k.); arxivlar va arxivistika tarixi: arxivlarning yuridik jihatdan tabiati; arxivlardan foydalanish [6]. Kazanova Italiya arxivshunosligi va, shu tariqa, umuman G'arbiy Yevropa arxiv sohasi ilmiga, ayniqsa arxiv nazariyasi va amaliyoti va arxiv tarixshunoslik yo'nalishlariga, o'zining munosib hissasini qo'shgan, uning asarlaridan keng foydalanilgan. Olimning "Arxivistika" kitobi 1966-yilda yana qayta nashr qilingan.

Yana bir italiyalik arxivshunos olim Milan tibbiyot instituti arxivi direktori Pio Pekka tomonidan 1928-yili "Davlat muassasalari va notarial arxivlari arxivchilari uchun amaliy yo'riqnomasi" [7] nomli kitob nashr qilingan. Ushbu asar ko'proq amaliy tavsiyalardan tarkib topgan va nazariy masalalarni chuqur tahliliga bag'ishlanmagan, biroq unda arxiv sohasida qo'llaniladigan huquqiy-meyoriy hujjatlar, arxiv tarixi, hujjatshunosligiga alohida e'tibor qaratilgan. Kitobda Pekka avval tarixshunoslik tahlilini keltirgan, so'ngra arxivlar tarixini qadimdan boshlab to XX asrgacha bo'lgan davr uchun bayon qilgan, bunda hamyurtlari tadqiqotlaridan keng foydalangan.

Doktrina qismida mutaxassis sifatida u arxiv ishi nazariyasi va amaliyotining eng muhim masalalarini tadqiq

qilgan (“arxivistika”, “arxiv”, “arxivchi” va b. atamalarga o‘z sharhini keltirib asoslagan). Uning asosiy yangiliklaridan biri, bu arxiv ilmiy xodimining kasbiy ma’lumotlilik darajasini aniqlashga uringanligidadir. Muallifning qayd etishiga ko‘ra, bunday xodim yuqori madaniyat va kasbiy fazilatlariga ega bo‘lishi, lotin tilini bilishi, umumjahon, millat va mahalliy tarixiy bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, xronologiya, paleografiya, diplomatika, filologiya, sfragistika, numizmatika, metrologiya, genealogiya, toponimika, evristika, cherkov massalari tarixi, chet tillari (asosan fransuz va ispan tillari) bo‘yicha ham bilimlarni egallagan bo‘lishi lozim. Muallif “arxiv” atamasiga juda katta ta’rif bergan va bu arxivshunoslar orasida baxs mavzusi ham bo‘lgan, ammo arxiv materiallarini tavsiflash hamda ularga ma’lumotnoma apparati tuzish masalalarini ancha aniq, qisqa va qulay tarzda talqin qilgan. Tadqiqotning notarial arxivlari haqidagi qismiga asarning qiymatini yanada oshiradi. Bunda muallif notarial idoralari arxivlar materiallarini Italiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga doir muhim manbalar sifatida ta’riflagan. Asarning arxiv va ish yuritish qonunchiligi mavzusiga bag‘ishlangan qismi ham talaygina foydali va qiziqarli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bunda davlat va shaxsiy arxivlar xususidagi meyoriy hujjatlar talqini keltirilgan. Pekkaining “Amaliy yo‘riqnomasi” italyan arxivchilari tajribasiga o‘ziga xos umumlashtirilgan tadqiqot sifatida ham ijobiy baholanadi.

Rimda 1934-yilda Italiya davlat arxivi arxivchisi, Xalqaro intellektual hamkorlik instituti kotibi Serafino Pistoleze “Yevropa arxivlari: XI asrdan to bugungi kunga qadar” nomli kitobini chop qilib, ushbu asar Xalqaro arxivchilar kongressining navbatdagi yig‘ilishiga ham bag‘ishlangan edi [8]. Mazkur davrda arxivlar ishining nazariy va amaliy masalalari olimlar va mutaxassislar asarlarida ancha keng talqin qilinganligi bois, Pistoleze o‘z kitobida asosan arxivlar tarixi mavzuni yoritgan. Arxivlar tarixini davrlashtirishga nisbatan o‘z fikrini bergan va buni siyosiy

hamda iqtisodiy voqealar bilan bog‘lagan. Ayni vaqtda muallif arxivlarning turlari, xususan, davlat va xususiy arxivlarning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qilgan. Olimning xizmatlaridan biri yana shunda bo‘ldiki, u yangi turdagi arxivlarining kelib chiqishi sabablarini aniqlab berishga uringan, ushbu arxivlarning yangicha ish uslubi, ish tashkil qilishi, materiallaridagi farqlari va ahamiyatini talqin qilib bergan. Mazkur kitob bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, unda arxiv ishi tarixi, nazariy masalalari, arxivlar turlari bilan bir qatorda arxiv atamashunosligiga katta e’tibor qaratilgan. Pistoleze g‘arbiy yevropalik arxivchi olimlardan birinchilar qatorida dunyoda XX asrning birinchi choragida yuzaga kelgan ishchilar mamlakati hisoblanmish Sovet ittifoqining arxivlari, arxiv ishi, huquqiy-meyoriy hujjatlar talqinini keltirgan va bunda holis yondashuv nuqtai nazarini tutgan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, XX asr dastlabki o‘ttiz yillik davrida G‘arbiy Yevropa arxivshunos olimlari hamda mutaxassislari tomonidan zamonaviy g‘arbiy arxivshunoslikning asosiy prinsiplari shakllantirilgan, uning nazariy asosi sifatida pozitivlik yo‘nalishi tanlab olingan. Hujjatlar saqlashdagi hududiy farqlanishlar umumiy nazariy asos mohiyatini o‘zgartirmagan bo‘lib, bu asos hujjatlarni tasniflashda ularning kelib chiqishi bo‘yicha aralash lozimligi qabul qilingan. Arxivshunoslikning nazariy masalalarini o‘rganishning yangi bosqichi XX asr 50–60-yillarida amalga oshirilgan. Ushbu davrda arxiv tarixshunosligi, arxiv nazariyasi va amaliyoti, arxivshunoslik uslubiyoti, arxiv ishi tarixi, hujjatchilikning nazariy va amaliy masalalari yangicha talqinda tadqiq qilingan va o‘nlab asarlar yaratilgan. Xalqaro arxiv tashkilotlari kongresslarida arxivshunoslikning nazariy masalalari rejali, tartibli tarzda ko‘rib chiqilishi yo‘lga qo‘yilgan. Yevropa olimlari o‘rtasida fikr va tajriba almashinuvi yo‘llari rivojlanib borgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Старостин Е.В. Зарубежное архивоведение: проблемы истории, теории и методологии. Москва: “Русский мир”, 1997. 320 с.
2. Карапетянц И.В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. Москва, 1997. 295 с.
3. Голубцов И. Архивист Голландии о проведении в порядок и описания архивов // Архивное дело. 1925. № 2. С.17-40; № 3-4. С.82-102.
4. Jenkinson Hilary. Manual of Archive administration including the Problems of War Archives and Archive making. Oxford, 1965. P.152.
5. Fournier Pierre Francois. Conselis pratiques pour le classement et l’inventaire des archives et l’edition des documents historiques ecrits. Paris, 1924;
6. Casanova E. Archivistica. 2 ed. Siena, 1928, P.236.
7. Pecchiai Pio. Manuale pratico per gli Archivisti delle pubbliche amministrszioni e degli arhivi notariali. 2 ed. Milano, 1928, P.235.
8. Pistolese S. Les archives europeenes du XI siècle a nos jours. Roma, 1934, P.178.